



## Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 435,0 ming so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 116,4 %ga oshdi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

#### Korxonalar va tashkilotlar soni

**101,0 %**



#### Xodimlar soni

**103,4 %**

#### Ish haqi fondi

**116,4 %**



#### O'rtacha ish haqi

**114,5 %**

*Ma'lumot uchun: O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining**

*(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*





### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2021-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. moliya, sug'urta faoliyatida – **6 194,2** ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – **3 378,3** ming so'mni tashkil etdi.


## Sanoat




## Qurilish




## Tashish va saqlash




## Moliya va sug'urta faoliyati



## Ta'lim



## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish







## Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 120,0 ming so'mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 17,8%ga oshgan.




Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **146,5** % va Qo'qon shahri - **124,3** % hissasiga to'g'ri kelgan.



**O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm**

Shu bilan birga, 15 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Furqat tumani – **97,7 %**, Marg'ilon shahri - **98,7 %**, Dang'ara tumani - **94,6 %** Yozyovon tumani – **96,2 %**, hissasiga to'g'ri kelgan.





## Qurilish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Qo'qon shahri—**141,6%**, Dang'ara tumani—**131,7%**, Farg'ona shahri – **117,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Shu bilan birga, viloytaning 4 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyt darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlari Yozyovon tumani - **93,5 %**, Bag'dod tumani - **78,9 %** hissasiga to'g'ri keldi.





## Savdo sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona tumani - **115,8 %**, Farg'ona shahri – **116,9%**, Bag'dod tumani - **141,6 %** hissasiga to'g'ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 4 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari - Uchko'prik tumani – **56,8 %**, Oltiariq tumani - **83,4 %** hamda Quva tumani - **76,3 %** hissasiga to'g'ri keldi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## Sanoat sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona shahri - **129,1 %**, Bag'dod tumani – **143,9 %** hissasiga to'g'ri kelgan.



Shu bilan birga, viloyatining 4 ta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi. Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Qo'shtepa tumani – **84,7 %**, Qo'qon shahri - **85,2 %** hissasiga to'g'ri keldi.

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

*(2021- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*






## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Furqat tumani - **120,3** %, Quva tumani - **117,8** %, hamda Qo'shtepa tumani - **109,7** % hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning 11 ta hududida o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Uchko'prik tumani – **97,3** %, Bag'dod tumani - **93,7** %, Qo'qon shahri - **93,5** %, O'zbekiston tumani - **88,7** %, Dang'ara tumani – **83,6** %, hamda Oltiariq tumani – **86,5** % hissasiga to'g'ri kelgan.



### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm





## Tashish va saqlash sohasida iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshloq tumani - **108,7 %** va Qo'qon shahri – **114,4 %** kuzatildi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 4 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Farg'ona shahri – **68,0 %**, Quvasoy shahri - **42,1 %**, hamda Rishton tumanida - **64,4 %** kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






## Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Qo'qon shahrida – **123,1 %**, Quvasoy shahri -**138,4 %**, Quva tumani – **108,4%**, Marg'ilon shahri - **120,9 %**, tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 6 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi. Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida - **95,3 %**, O'zbekiston tumani – **22,0%**, Buvayda tumani - **63,1 %**, va Uchko'priq tumanida – **59,0 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %da

(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 2020-yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi sanoatda **8,4** %ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **18,4** %ga, ta'lim sohasida **17,6** %ga, axborot va aloqada **18,9** %ga bank, sug'urta faoliyatida **22,8** %ga, o'sganligi kuzatildi, qurilishda **99,4** %ga, savdoda **89,0** %ga kamayishi kuzatildi.

## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %da

(2021-yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida **3 280,3** ming so'mni, Qo'qon shahrida **2 826,9** ming so'mni, Quvasoy shahrida **2 401,1** ming so'mni va Marg'ilon shahrida **2 133,6** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida **1 903,2** ming so'mni, Farg'ona tumanida **1 952,8** ming so'mni tashkil etgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar-dekabr 2020-yil	yanvar-dekabr 2021-yil	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	2091,6	2435,0	116,4
Farg'ona	2795,8	3280,3	117,3
Qo'qon	2311,1	2826,9	122,3
Quvasoy	2119,5	2401,1	113,3
Marg'ilon	1848,2	2133,6	115,4
Oltiariq	1611,6	1694,4	105,1
Qo'shtepa	1841,4	2067,9	112,3
Bag'dod	1935,1	2182,3	112,8
Buvayda	1509,7	1773,1	117,4
Beshariq	1487,4	1723,3	115,9
Quva	1742,4	2001,1	114,8
Uchko'prik	1734,3	1943,9	112,1
Rishton	1732,2	2026,0	117,0
So'x	1752,6	2093,0	119,4
Toshloq	1976,7	2585,2	130,8
O'zbekiston	1715,5	1977,3	115,3
Farg'ona	1498,3	1952,8	130,3
Dang'ara	1591,5	1903,2	119,6
Furqat	1867,7	2136,6	114,4
Yozyovon	1888,8	2067,4	109,5

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risidagi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaroriga muvofiq, 2021-yilning 1-sentabrdan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **822000** so'mni tashkil etgan edi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlaridan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-32